

TARIXNING OVOZI - BERDAQ SHE'RIYATIDA.

*Toshkent Pediatriya Tibbiyoti Instituti 2-pediatriya
va Fundamental Tibbiyot Fakulteti talabasi
Sobirova Nasibaxon Jamoliddin qizi.*

Annotatsiya: Hayot bir yo'ldir, undan o'tib ketish o'z qo'limizda. Ushbu maqola Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning hayot va ijoddagi falsafiy qarashlarini chuqur tahlil qiladi. Berdaq, o'z asarlarida insoniyat, jamiyat va ma'naviyatga bo'lgan yondashuvini, hayotning maqsadlarini tushinishda qanday falsafiy printsiplarga asoslanganini ochib beradi. Maqolada, uning ijodidagi eng asosiy g'oyalar – o'zlikni anglash, ichki yuksalik, o'zgarishning zarurligi, jamiyatdagi adolat va birodarlik kabi mavzular ko'rib chiqiladi. Berdaqning falsafasi orqali o'zining zamonaviy dunyoqarashi va jamiyatdagi rolini tushinishga harakat qilinadi. Ushbu maqola, shuningdek, Berdaqning asarlaridagi hikmatli va ularning zamonamizda qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritadi. Maqola uning ijtimoiy mas'uliyat, ma'naviyat va adolat haqida aytgan fikrlarini jamiyat uchun dolzarb mavzular bilan bog'lab ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: printsipl, falsafiy qarashlar, ma'naviy yuksalish, uyg'unlik, qadriyat, dunyoqarash, ruhiy olam, ma'naviy yuksalish.

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq – o'zining hayoti va ijodi orqali qoraqalpog' milliy falsafasining yorqin namoyondalaridan biri sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Uning fikrlari va qarashlari nafaqat o'z zamonasi, balki kelajak avlodlar uchun ham bebaho merosdir. Berdaq hayot va ijodidagi falsafiy qarashlari bilan insonning ichki dunyosini va uning atrofidagi jamiyatni tushunishning yangi yo'llarini ochib bergan. Uning falsafasida insonni o'zi bilan, tabiat bilan va jamiyat bilan uyg'unlikda yashashga chaqiruvchi chuqur ma'nolar bor.

Berdaq (asl ismi Berdimurod) Qarg'aboy o'g'li 1827-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida, baliqchi kambag'al oilada dunyoga kelgan (avvalgi nomi "Oq qal'a" bo'lgan). U ota – onasidan erta ayriladi va o'n yoshida diniy maktabga boradi. Maktabni tugatgach Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan "Qoraqum eshon" madrasasiga o'qishga kiradi.

Berdimurod o'zbek adabiyotining buyuk mutafakkiri, shoir va davlat arbobi bo'lib, o'z asarlari bilan nafaqat o'z davrini, balki keyingi avlodlarni ham ilhomlantirgan. U o'zining qalamiga mansub asarlarida jamiyat va shaxsiyat masalalariga chuqur falsafiy yondashuvni ilgari surdi. Uning adabiy merosi, asosan, dostonlar, she'riy asarlar va falsafiy risolalardan iborat bo'lib, ularning

har birida insonning ichki dunyosi va jamiyatdagi o'zni haqida chuqur fikrlar bor. Uning fikriga ko'ra, o'zlikni anglash insonning ma'naviy yuksalishidagi muhim bosqichdir. U insonni rivojlantirish va ichki tinchlikka erishish uchun avvalo o'zini tushinishi, o'zining haqiqatini qabul qilishi kerakligini ta'kidlaydin. O'zlikni anglash, uning fikricha, nafaqat shaxsiy yuksalish, balki jamiyatni o'zgartirishning ham asosiy yo'li bo'lib, har bir inson o'zgarishlari o'zidan boshlashi kerak. Berdaq jamiyatdagi adolat va tenglikni muhim qadriyat sifatida ko'rgan. U o'zining she'riy asrlarida va dostonlarida insonlar o'rtasida birodarlik, hamjihatlik va adolatni targ'ib qilgan. Uning fikricha, jamiyatni o'zgartirish uchun avvalo insonlarning qalbida o'zgarish bo'lishi darkor. Faqatgina ichki o'zgarishlar tashqi dunyoga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek shoirning keyingi umri ham qashshoqlik, yo'qchilik bilan o'tgan. U o'zining hayoti to'g'risida ko'p narsalar yozadi. Berdaq "Yoz kelarmu" degan qo'shig'ida o'zining turmush ahvoli haqida:

Yovganim yo'q ichmakka,
Ko'ligim yo'q ko'chmakka.
To'shak yo'q to'shamakka,
Sho'rli elga yoz kelarmi.

Cho'zilib yotar uyim yo'q,
Egninga tortar kiyim yo'q.
To'qlardan bizga buyum yo'q,
Biz sho'rlikka yoz kelarmi.

-deb yozadi. Mana bu parchadan Berdaqning turmushi qanday og'ir bo'lganini bilib olamiz. Shoir o'zining "Davron" degan qo'shig'ida: "Dunyoga kelib ko'p jafo chekdim, boshimdan qayg'u ketmadi, bir parcha non menga qayg'u bo'ldi, to'shagim tuproq, yostig'im kessak bo'ldi, mol – dunyom yo'q edi, umrim qayg'u kulfat bilan o'tdi" deb o'z zamonidan noliydi. Shoir "Bilmadim" degan qo'shig'ida:

Kiyganim yamoq – yashiq,
Uning ham bor yeri teshik.
Dunyo menga bo'ldi qoshiq,
Ne bo'larimni bilmadim.
-deydi. Yana "Ko'rdim" degan qo'shig'ida:

Otim bo'ldi doim och,
Kiyimsiz qip – yalang'och.

-deb yozadi. Biz Berdaqning o'z asarlaridan va shoirni biladigan odamlarning so'zlaridan ham uning juda kambag'al bo'lganini, mehnatkash xalq orasidan chiqqanligini ko'ramiz.

Berdaq yoshligidanoq shoirlilik qobiliyati paydo bo'ladi va badiiy adabiyotga bog'lanib qoladi. O'sha paytlarda bo'lajak shoirlar ertaklarni, afsonalarni va mashhur shoirlarning she'rlarini eshitib va qiziqib yurar edi. Uning she'rlarni o'sha vaqtdagi mashhur baxshilar qo'shiq qilib aytardilar.¹¹Bundan tashqari shoirlar Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoq orasida nomdor Kunxo'ja, Ajiniyoz bilan tanish edi. O'tesh degan shoirlar bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Muso baxshi bu shoirlar bilan o'z fikrlarini, adabiyot haqidagi fikrlarni, musiqani o'zaro ayirbosh qilardi, bu haqda Berdaq o'zining "Bo'lgan emas", "Mening hayotim" va "Muso baxshi" asarlarida yozgan. Mashhur shoirlarning hayoti kamchilik va qiyinchilikda o'tdi. Shuning uchun u biror bir daromad topish uchun hattoki, o'ziga yoqmagan insonlarga asarlarini kuylatgan. Masalan Qoraqum eshon madrasasida o'quvchilarga bir qo'zichoq obraziga ular Berdaqni sevimli qo'shiqlarini aytishga majbur etishgan. Keyin ular shoirlarni aldagan va urib tashlagan. Bu haqda Berdaq o'zining "Yaxshiroq" she'rida yozgan. Qattiq talab va saxiy pul mukofoti evaziga Berdaq she'ri o'zining qattiq kulgisi bilan mashhur bo'lgan Kulenga bag'ishlagan, lekin u ham Berdaqni aldab ketgan. Bu haqda achchiq afsuslik bilan Berdaq o'zining "Bo'lgan emas" asarida yozgan.

Eshonlarda muruvvat yo'q,
Boy – biylarda adolat yo'q.
Fuqaroda sadoqat yo'q,
Xalq hech o'ynab – kulgan emas.

Ey yorlonlar sirtim butun,
Bag'rim yonib bo'ldi tutun.
Zolim oshirib o'z haddin,
Aslo rahm qilgan emas.

Bu dunyo – dunyo bo'lmadi,
Erkimizga hech qo'ymadi.
Dushmanning guli so'lmadi,
Tilagim hech bo'lgan emas.

¹¹ Mirtemir tarjimai "Berdaq tanlangan asarlari" O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.T.1956.156-b.

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi, o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan ta'qib ostiga olinar edi. Berdaq taxminan yigirma ikki yoshida Myuten urug'idan ya'ni, Kentay avlodidan bo'lgan Boymanqulning qizi. Bibitxon ismli qizga uylangan. Bu xotindan to'rt qiz farzand tug'iladi, ularning orasida Hurliman birinchi qoraqalpoq ayol baxshi bo'ladi va yana ikki o'g'illi bo'lgan. Berdaq ko'p nabiralari bo'lgan ulardan biri Hurlimanning o'g'li Qorajon, u ham baxshi bo'lgan (1957-yilda vafot etgan). Qorajon onasidan qo'shiqchilik qobiliyatini meros qilib olgan va Berdaqning dutorida musiqa chalib qo'shiq aytgan. Bu dutorni ya'ni Berdaqni dutorini Qorajon qoraqalpoq muzeyiga bergan.

Berdaqning qarashlarida ijtimoiy mas'uliyat va adolat mavzulari alohida ahamiyatga ega. U har bir insonning jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini tushunishi kerakligini ta'kidlaydi. Adolat, uning fikricha, insonning o'zini to'g'ri anglashidan boshlanadi. Inson o'zining haqiqatini anglab yetgach, u adolatli bo'lishini o'zining asosiy maqsadi sifatida belgilaydi. Berdaq, o'z asarlarida ko'pincha, adolatni o'z hayotining eng muhim mezoni sifatida keltirgan.

O'z xalqini sodiq farzandi Berdaq, podshohni, xonlarni, umuman barcha oddiy xalqni ezuvchilarni yomon ko'radi, ularga lan'at o'qiydi, ularni xalqning ashaddiy yovlari, xalqni chaqadigan zaharli ilon – chayonlar deb biladi. U "Ko'rindi" degan qo'shig'ida shoir, xonlar va otaliqlardan qattiq nafratlanish bilan bunday deydi:

Odamga shafqatsiz jallod – beamon,
Elni ko'p yig'latgan otaliq va xon.
Boshlarga ko'p qayg'u soldi bu zamon,
Menga bari ilon, chayon ko'rindi.

Berdaq uchun ezuvchi – u boymi, otaliqmi, mullami baribir, ezuvchidir. Ularning bir – birovidan hech qanday farqi yo'q. Ularning barchasining maqsadi bir, xalqni talash, deb biladi. Shuning uchun ham Berdaq xalqning ko'zini bo'yab, turli buzuqchiliklar qilayotgan mullalarni, xo'ja va so'fiylarni qattiq tanqid qiladi. Masalan, "Xo'jam" degan qo'shig'ida eshakning dumini kesib, gunohsiz hayvonga azob bergan xo'janing iflos qilmishlarini aytadi: "Teskarichi" degan qo'shig'ida "aylanayin sallam sendan, hechkim gumon qilmas mendan" deb qariganda so'fiylikni parda qilib, turli jirkanch ishlar bilan mashg'ul bo'lgan mulla Mambetning sirlarini fosh qiladi:

Bu zamonning eshon, begi,
To'g'ri yurmaydi hech biri.
Shumlik bilan o'tar kuni,

-deb yozadi shoir.

Yana:

Birovlar och, birovlar to'q,
To'q odamning qayg'usi yo'q.
Och odamning uyqusi yo'q,
Buni to'qlar bilgan emas.

-deb, kambag'allar bilan boylarning orasidagi qarama – qarshilikni ochib tashlaydi. Xuddi o'sha qo'shiqda: “Zolimlarning jabri o'tdi, eshonlarda insof bitdi, beklarda oddiylilik yo'q, mulla, eshonlar zolim bo'ldi”, deb yozadi.

Ma'lumki Berdaq bunday eksik hayotga qarshi edi. Unga inson haqiqiy talab qilgan fikr bilan yashadi. Unga jannatning ezgulik va yorqin kelajagi kerak emas edi, balki, faqatgina hayoti davomida oddiy xursandchilik bilan o'tadigan kuni bo'lsa bas edi. Berdaq shu bilan ham kifoyalanar edi. Shuning uchun ham Berdaq o'sha davrdagi amaldor sinflarga qarama – qarshi munosabatda bo'lgan. Bir tomondan oddiy xalqni orasida kuchayib ketayotgan ishsizlik va hukmron tabaqa vakillari tomonidan o'z mol-u mulkini, boyligini, vaqtini qayerga sarf qilishini bilmaganlari uchun shoirning g'azabiga tegar edi. Berdaq diniy, so'fiy ma'lumotlariga qarshi edi. U rohat zaruriyatini tushunmas edi. U so'fiylarni xalqni tinchlantirish uchun aytgan gaplariga parvo ham qilmadi. Shoir katta feodallarning nohaqiqiy hayotini nafrat bilan h, ukm qilar edi. U kambag'al insonning peshona teri, mehnati bilan topgan oddiy nonini, boylarning asali bilan qarama – qarshi qo'ygan edi.

Tong sahar turib, terlab,
Qo'llaring asov bo'lsa ham.
Oyog'ing og'riqdan tinmasa ham,
Ammo sen o'z mehnating bilan topgan yog'och,
Asaldan ham shirin ko'rinar.

O'z mehnati bilan topgan bir burda nonni ko'rib, inson zavqlanadi degan fikrida shoir o'zining “Nodon bo'lma”, “Mening o'g'lim” degan asarlarida aynan shu mavzuga tegishli joylarini ko'rishimiz mumkin.

Berdag ijodining asosiy tamoyillari, qadriyatlar va o'zgarishlarga bo'lgan ishonchi haqida. U o'z asarlarida zamonaviy dunyo va uning muammolariga qarshi qanday fikrlarni ilgari surganini ko'rsatadi. Ijodiy yondashuvning kuchi va uning jamiyatdagi ta'siri haqida mulohazalar yuritiladi. Berdimurodning o'zlikni tushunish va ichki dunyoni kashf etish borasidagi fikrlarini ochib beradi. Uning asarlarida o'zini anglash, insonni rivojlantirish va ma'naviy yuksalish g'oyalari

markaziy o'rin egallaydi. Maqolada Berdaqning asarlaridan ilhomlanib, o'z hayotingizni qanday o'zgartirishingiz mumkinligi haqida mulohazalar yuritiladi. Berdimurod hayoti va ijodi, uning falsafiy qarashlari, o'zbek adabiyotida va madaniyatida o'zgacha o'rin tutadi. U o'z asarlarida milliy qadriyatlar, mehnat, adolat, tabiat va insonning ruhiy olami haqida chuqur fikrlar yuritdi. Berdaqning falsafiy qarashlari nafaqat uning shaxsiy dunyoqarashini, balki, butun bir xalqning, uning tarixini, orzularini va kelajagini anglashni o'z ichiga oladi. Shoirning fikrlarida inson va tabiat, xalq va mehnat, adolat va hayotning ma'nosi kabi qadriyatlar doimo, keng ommaga o'rnak bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirtemir tarjimasi "Berdaq tanlanfan asarlari" O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.T.1956. 156-b.
2. Бердах. Избранное. Ташкент. 1980 стр. 30.
3. Falsafa qomusiy lug'at, Tashkent, Sharq - 2003.
4. <http://www.kitap.net.tr/berdaq.php>.